




ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



STUDIES OF LINGUOPOETICS IN CONTEMPORARY WORLD LINGUISTICS

Dovranjon Turgunovich Khaydarov

Independent Researcher

Fergana State University

Science ID: FNM-0526-0113

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: linguopoetics, literary text, poetics, linguistics, linguistic analysis, aesthetic function, authorial style, phonopoetics, lexical poetics, phraseopoetics, morphopoetics, syntactic poetics, tropes, stylistic devices, literary concept, text linguistics, pragmalinguistics, cognitive linguistics, communicative-aesthetic system.

Received: 27.07.26

Accepted: 28.07.26

Published: 29.07.26

Abstract: This article examines the theoretical foundations, historical development, and contemporary significance of linguopoetics as one of the major branches of modern philology. It analyzes the essence of linguopoetics as an interdisciplinary field formed at the intersection of linguistics and poetics. Particular attention is paid to the scholarly contributions of Aristotle, representatives of the Russian Formalist School (Viktor Shklovsky, Boris Eikhenbaum, and Yuri Tynyanov), the Prague Linguistic Circle, as well as Yuri Lotman, Viktor Vinogradov, Mikhail Bakhtin, and Ilya Galperin, whose theories have substantially contributed to the development of linguopoetic studies. The paper also discusses the principal objects of linguopoetic analysis, including phonopoetics, lexical poetics, phraseopoetics, morphopoetics, syntactic poetics, tropes, stylistic devices, individual authorial style, and literary concepts. The study concludes that linguopoetics is an integrative scientific discipline that provides a comprehensive framework for investigating literary texts as multilayered communicative and aesthetic systems.

LINGVOPOETIKA SOHASINING JAHON TILSHUNOSLIGADIGI TADQIQI

Dovranjon Turg'unovich Xaydarov

Mustaqil izlanuvchi

Farg'ona davlat universiteti

Ilmiy identifikatsiya raqami: FNM-0526-0113

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Lingvopoetika, badiiy matn, poetika, tilshunoslik, lingvistik tahlil, estetik funksiya, badiiy uslub, fonopoetika, leksik poetika, frazeopoetika, morfopoetika, sintaktik poetika, trop, stilistik figuralar, individual muallif uslubi, badiiy konsept, matn lingvistikasi, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik, kommunikativ-estetik tizim.

Annotatsiya: Mazkur maqolada lingvopoetikaning nazariy asoslari, shakllanish tarixi va zamonaviy filologiyadagi oʻrni yoritilgan. Lingvopoetikaning tilshunoslik va poetika fanlari kesishgan nuqtasida vujudga kelgan kompleks ilmiy yoʻnalish sifatidagi mohiyati tahlil qilinadi. Soha rivojiga hissa qoʻshgan Aristotel, rus formal maktabi vakillari (V.B. Shklovskiy, B.M.Eyxenbaum, Y.N.Tinyanov), Praga lingvistik maktabi, Y.M.Lotman, V.V.Vinogradov, M.M.Baxtin va I.R.Galperin kabi olimlarning ilmiy qarashlari yoritiladi. Shuningdek, lingvopoetikaning asosiy tadqiqot obyektlari – fonopoetika, leksik poetika, frazeopoetika, morfopoetika, sintaktik poetika, trop va stilistik figuralar, individual muallif uslubi hamda badiiy konseptlarning nazariy xususiyatlari tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida lingvopoetikaning badiiy matnni koʻp sathli kommunikativ-estetik tizim sifatida oʻrganishga xizmat qiluvchi integrativ ilmiy yoʻnalish ekanligi asoslanadi.

**ИССЛЕДОВАНИЕ ЛИНГВОПОЭТИКИ В СОВРЕМЕННОЙ МИРОВОЙ
ЛИНГВИСТИКЕ**

Довранжон Тургунович Хайдаров

Независимый исследователь

Ферганский государственный университет

Научный идентификационный номер: FNM-0526-0113

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: лингвопоэтика, художественный текст, поэтика, лингвистика, лингвистический анализ, эстетическая функция, авторский стиль, фонопоэтика, лексическая поэтика, фразеопоэтика, морфопоэтика, синтаксическая поэтика, тропы, стилистические фигуры, художественный концепт, лингвистика текста, прагмалингвистика, когнитивная лингвистика, коммуникативно-эстетическая система.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы, история формирования и современное состояние лингвопоэтики как одного из актуальных направлений современной филологии. Анализируется сущность лингвопоэтики как комплексной научной дисциплины, возникшей на стыке лингвистики и поэтики. Освещаются научные взгляды Аристотеля, представителей русской формальной школы (В.Б. Шкловского, Б.М. Эйхенбаума, Ю.Н. Тынянова), представителей Пражского лингвистического кружка, а также Ю.М.

Лотмана, В.В. Виноградова, М.М. Бахтина и И.Р. Гальперина, внесших значительный вклад в развитие данной области. Особое внимание уделяется основным объектам лингвопоэтического анализа: фонопоэтике, лексической поэтике, фразеопоэтике, морфопоэтике, синтаксической поэтике, тропам, стилистическим фигурам, индивидуальному авторскому стилю и художественным концептам. Делается вывод о том, что лингвопоэтика представляет собой интегративное научное направление, обеспечивающее комплексное исследование художественного текста как многоуровневой коммуникативно-эстетической системы.

Kirish. Til inson tafakkurining mahsuli, milliy madaniyatning asosiy ifodachisi hamda badiiy-estetik tafakkurning yetakchi vositasi sifatida nafaqat kommunikativ, balki estetik, ekspressiv va emotsional funksiyalarni ham bajaradi. Shu bois zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichida til hodisalarini faqat grammatik yoki leksik tizim doirasida o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning badiiy matndagi funksional-estetik imkoniyatlarini tadqiq etish masalasi ham alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi. Ana shunday yo'nalishlardan biri bo'lgan lingvopoetika til va poetika o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ilmiy asosda tadqiq etuvchi, badiiy matnning estetik tabiati hamda unda qo'llanilgan til vositalarining badiiy-ta'sirchanlik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan kompleks ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Mazkur yo'nalishning shakllanishi tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi, matn tilshunosligi, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik va stilistika kabi fan tarmoqlarining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning nazariy tamoyillari lingvopoetikaning metodologik asoslarini yanada boyitdi.

Lingvopoetika atamasi ikki mustaqil ilmiy tushuncha – lingvistika va poetika terminlarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, u badiiy matnda til birliklarining estetik vazifasi, ularning obraz yaratishdagi ishtiroki, muallif individual uslubining namoyon bo'lish mexanizmlari hamda badiiy mazmunning til vositalari orqali ifodalanish qonuniyatlarini o'rganadi. Lingvopoetika faqatgina badiiy tasvir vositalarini tavsiflash bilan chegaralanmaydi, balki ularning matn semantikasi, pragmatik mazmun va estetik ta'sir kuchini ham yoritishni nazarda tutadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda lingvopoetika zamonaviy filologiyaning eng muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, uning nazariy asoslari

XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan struktural tilshunoslik, funksional stilistika, semiotika va matn nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlandi. Ayniqsa, badiiy matnni ko‘p qatlamli kommunikativ birlik sifatida talqin qilish tamoyilining yuzaga kelishi natijasida lingvopoetik tadqiqotlarning metodologik imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi.

Lingvopoetikaning shakllanish tarixiga nazar tashlansa, mazkur soha haqidagi dastlabki nazariy xulosalar qadimgi yunon falsafasiga borib taqaladi. Xususan, Aristotel “Poetika” asarida badiiy ijod mohiyatini yoritish jarayonida poetik nutqning tabiati, metaforaning badiiy tafakkurdagi o‘rni hamda til vositalarining estetik funksiyasi haqida muhim ilmiy mulohazalarni ilgari surgan[1]. Aristotel tomonidan poetik nutqning tabiati, metaforaning badiiy tafakkurdagi o‘rni hamda til vositalarining estetik imkoniyatlariga doir ilgari surilgan nazariy qarashlar keyingi davrlarda poetika, ritorika va stilistika fanlarining shakllanishi hamda rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, antik davr poetikasida badiiy asarning estetik qimmati, obrazlilik, so‘z tanlovi va ifoda vositalarining badiiy ta’sirchanligi bilan bog‘liq nazariy mulohazalar keyinchalik Yevropa filologik tafakkurida izchil rivojlantirilib, Uyg‘onish davri, klassitsizm va romantizm adabiy-estetik qarashlari orqali yanada boyitildi. Mazkur davrlarda badiiy asar, avvalo, estetik hodisa sifatida talqin etilgan bo‘lsa-da, tilning badiiy imkoniyatlarini mustaqil lingvistik tadqiq etishga qaratilgan ilmiy yondashuv hali to‘liq shakllanmagan edi.

XX asr boshlarida badiiy matnni ilmiy asosda tadqiq etishga qaratilgan yangi metodologik yondashuvlarning shakllanishida rus formal maktabi vakillarining ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur maktab vakillari badiiy asarni, avvalo, uning shakliy tuzilishi, poetik vositalari va tilning estetik imkoniyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilish zarurligini ilgari surdilar. Ularning fikricha, badiiylik asarning mazmunida emas, balki mazmunni ifodalovchi til vositalarining o‘ziga xos tashkil etilishida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan rus formal maktabi lingvopoetikaning keyingi rivojlanishi uchun muhim nazariy asos yaratdi. Rus formal maktabining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lgan V.B.Shklovskiy badiiy asarning o‘ziga xosligini, avvalo, unda qo‘llanilgan poetik usullar tizimi belgilashini ta’kidlab[2], san’atning asosiy vazifasi voqelikni oddiy va odatiy tarzda aks ettirish emas, balki uni kitobxon uchun yangicha idrok etish imkonini beradigan badiiy shaklda tasvirlashdan iborat ekanligini ilmiy asoslaydi. Shu maqsadda olim tomonidan ilgari surilgan begonalashtirish nazariyasi badiiy tilning estetik imkoniyatlarini tushuntiruvchi muhim metodologik tamoyillardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Rus formal maktabining yana bir yirik vakili B.M.Eyksenbaum formal metodning nazariy asoslarini yanada rivojlantirib, badiiy asarni tahlil qilishda asosiy e’tiborni uning tashqi omillariga emas, balki ichki tuzilishi va poetik qonuniyatlarini o‘rganishga qaratadi. Olimning ta’kidlashicha, badiiy matnning estetik qimmati muallifning tarjimai holi yoki asar yaratilgan tarixiy sharoit bilan emas, balki uning til qurilishi, kompozitsion yaxlitligi, uslubiy tashkil etilishi hamda poetik

vositalarning o‘zaro uyg‘unligi orqali belgilanadi[3]. Shu sababli badiiy matnni ilmiy tahlil qilishda uning fonetik, leksik, sintaktik va kompozitsion xususiyatlarini yaxlit tizim sifatida o‘rganish muhim metodologik tamoyil hisoblanadi. Eyxenbaumning mazkur qarashlari badiiy matnni lingvistik mezonlar asosida tahlil qilishning nazariy imkoniyatlarini kengaytirib, lingvopoetik tadqiqotlarda til birliklarining estetik funksiyasini aniqlash uchun muhim ilmiy asos yaratdi.

Rus formal maktabining yana bir ko‘zga ko‘ringan namoyandasi Y.N.Tinyanov esa badiiy matnni dinamik va doimiy rivojlanib boruvchi tizim sifatida talqin qilib, adabiy jarayonning taraqqiyoti til vositalarining funksional o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi[4]. Olim ishlab chiqqan adabiy evolyutsiya nazariyasiga ko‘ra, poetik vositalarning badiiy vazifasi muayyan tarixiy-adabiy davr, estetik talab va adabiy muhit ta’sirida o‘zgarib boradi, shu sababli badiiy matnni tahlil qilishda til birliklarini faqat statik holatda emas, balki ularning tarixiy taraqqiyoti va funksional rivojlanishi bilan bog‘liq holda baholash zarur. Tinyanovning ushbu yondashuvi lingvopoetik tadqiqotlarning metodologik doirasini yanada kengaytirib, badiiy matndagi til vositalarining poetik funksiyasini tarixiy, funksional va estetik mezonlar asosida kompleks tahlil qilish imkoniyatini yaratdi. Shunday qilib, Shklovskiy, Eyxenbaum va Tinyanov tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar rus formal maktabining ilmiy asoslarini shakllantiribgina qolmay, keyinchalik lingvopoetikaning mustaqil fan sifatida rivojlanishiga ham mustahkam metodologik zamin yaratdi.

Rus formal maktabi vakillari tomonidan ishlab chiqilgan nazariy tamoyillar keyinchalik Praga lingvistik maktabi olimlari tomonidan yanada takomillashtirilib, badiiy matnni funksional va estetik jihatdan tadqiq etishga qaratilgan yangi ilmiy yondashuvlar bilan boyitildi. Xususan, Praga lingvistik to‘garagining yetakchi namoyandalaridan biri Jan Mukarovskiy badiiy tilning estetik funksiyasini tilning eng muhim funksiyalaridan biri sifatida e’tirof etib, badiiy matnda til birliklari faqat axborot uzatish yoki kommunikativ vazifani bajarish bilangina cheklanmasdan, kitobxonda estetik ta’sir uyg‘otuvchi alohida poetik vazifani ham bajarishini ilmiy asoslab berdi[5]. Mukarovskiyning ilmiy qarashlari til birliklarining poetik funksiyasi, badiiy matnning estetik tabiati hamda muallif individual uslubini tadqiq etishga qaratilgan zamonaviy lingvopoetik izlanishlarning shakllanishida muhim nazariy manbalardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Shu bilan birga, Y.M.Lotman badiiy matnni murakkab semiotik tizim sifatida talqin qilib, uni oddiy til birliklari yig‘indisi emas, balki o‘zaro bog‘langan ko‘p qatlamli belgilar tizimi sifatida izohlaydi[6]. Olimning ta’kidlashicha, badiiy matnning mazmuni undagi alohida leksik yoki grammatik birliklar bilan emas, balki ularning o‘zaro munosabati, strukturaviy yaxlitligi, kontekstual aloqalari hamda madaniy kodlar uyg‘unligi orqali shakllanadi. Shu sababli badiiy

asarni tahlil qilishda til birliklarining faqat shakliy xususiyatlarini emas, balki ularning semantik, pragmatik va estetik yukini ham kompleks tarzda o'rganish zarur.

Natija va muhokama. XX asr boshlarida badiiy matnni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etishga bo'lgan qiziqish ortib, til birliklarining estetik imkoniyatlari, ularning badiiy mazmunni shakllantirishdagi o'rni hamda muallif individual uslubini yuzaga chiqarishdagi funksional xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur ilmiy qarashlarning rivojlanishida V.V.Vinogradovning badiiy til va individual muallif uslubiga oid nazariyasi muhim o'rin tutadi. Olim badiiy asarning estetik qimmati, avvalo, muallif tomonidan til birliklarining maqsadga muvofiq tanlanishi, ularning kontekst doirasida funksional qo'llanishi hamda o'zaro uyg'unligi bilan belgilanishini ta'kidlaydi[7]. Vinogradovga ko'ra, badiiy matnda qo'llangan har bir fonetik, leksik, frazeologik, morfologik va sintaktik vosita muallifning individual uslubini shakllantiruvchi, obrazlilikni kuchaytiruvchi hamda asarning estetik ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim lingvistik omil hisoblanadi. Shu bois badiiy matnni tahlil qilish jarayonida til birliklarini alohida holda emas, balki ularning umumiy poetik tizimdagi vazifasi, o'zaro munosabati va badiiy mazmunni yuzaga chiqarishdagi ishtiroki nuqtayi nazaridan baholash zarur.

Lingvopoetikaning nazariy asoslari rivojida M.M.Baxtinning badiiy nutq va dialogiklik konsepsiyasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Olim badiiy matnni yakka ma'noga ega bo'lgan yopiq tizim sifatida emas, balki turli nutq subyektlari, ijtimoiy ong shakllari va madaniy qadriyatlar o'zaro munosabatga kirishadigan ko'p qatlamli dialogik makon sifatida talqin qiladi[8]. Baxtinga ko'ra, har qanday badiiy matn muallif, qahramon va kitobxon o'rtasidagi murakkab muloqot mahsuli bo'lib, unda mazmun faqat til birliklarining lug'aviy yoki grammatik ma'nosi orqali emas, balki ularning kontekstual qo'llanilishi, nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad hamda boshqa matnlar bilan o'zaro munosabati natijasida shakllanadi. Shu sababli badiiy matnni tahlil qilishda til birliklarini alohida hodisa sifatida emas, balki ularning umumiy dialogik tizimdagi funksional o'rni va estetik yuklamasi bilan bog'liq holda o'rganish zarur.

Badiiy matnning dialogik tabiati va kommunikativ xususiyatlariga oid mazkur nazariy qarashlar keyinchalik matn lingvistikasi doirasida yanada rivojlantirildi. Bu borada I.R.Galperinning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Olim matnni mustaqil lingvistik birlik sifatida e'tirof etib, uni o'ziga xos ichki tuzilishga, mazmuniy yaxlitlikka va kommunikativ maqsadga ega bo'lgan murakkab nutqiy butunlik sifatida tavsiflaydi[9]. Galperinning ta'kidlashicha, matnning lingvistik mohiyatini anglash uchun uni tashkil etuvchi til birliklarini alohida-alohida emas, balki ularning o'zaro semantik va sintaktik bog'liqligi, kompozitsion yaxlitligi hamda kommunikativ vazifasi bilan uzviy aloqada tahlil qilish zarur. Shu ma'noda olim matnning yaxlitlik, bog'liqlik, informativlik kabi kategoriyalarini ajratib ko'rsatadi hamda ushbu

kategoriyalar badiiy matnning mazmuniy va estetik mukammalligini ta'minlovchi asosiy omillar ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarda badiiy matn yaxlit kommunikativ-estetik tizim sifatida talqin qilinib, undagi fonetik, leksik, frazeologik, morfologik va sintaktik birliklarning poetik vazifasi, ularning badiiy mazmunni shakllantirishdagi ishtiroki, muallif individual uslubini yuzaga chiqarishdagi o'rni hamda kitobxonga ko'rsatadigan estetik ta'siri tizimni ravishda tahlil qilinadi. Shu jihatdan lingvopoetikaning tadqiqot obyekti faqat trop va stilistik vositalar bilan chegaralanmay, balki badiiy matnning barcha lisoniy qatlamlarini o'z ichiga oluvchi ko'p sathli ilmiy tizimni tashkil etadi.

Lingvopoetik tahlilda dastlab fonopoetika alohida o'rin egallaydi. Mazkur yo'nalishda tovushlarning estetik imkoniyatlari, alliteratsiya, assonans, konsonans, ritm, intonatsiya, pauza va boshqa fonetik vositalarning badiiy matnning obrazlilik darajasini oshirishdagi hamda emotsional-ekspressiv ta'sirini kuchaytirishdagi funksiyasi tadqiq etiladi. Ayniqsa, she'riy matnda tovush takrorlari, ohang va ritmik qurilish muallifning poetik niyatini ifodalashda muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Lingvopoetik tadqiqotlarning muhim obyektlaridan biri leksik poetika bo'lib, unda so'zlarning semantik imkoniyatlari, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemantik birliklar, arxaizmlar, neologizmlar, dialektizmlar, ekspressiv-emotsional leksika hamda muallif tomonidan yaratilgan individual muallif birliklarining badiiy matndagi estetik vazifasi o'rganiladi. Leksik birliklarning kontekstual ma'no kasb etishi, poetik semantikani yuzaga chiqarishi va badiiy obrazlar tizimini shakllantirishdagi ishtiroki lingvopoetik tahlilning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Frazeopoetika esa frazeologik birliklarning badiiy matndagi funksional-estetik imkoniyatlarini tadqiq etadi. Frazeologizmlar xalqning tarixiy xotirasi, milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan lisoniy birliklar bo'lib, ular badiiy matnda obrazlilikni kuchaytirish, milliy koloritni yaratish va poetik mazmunni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli lingvopoetik tahlilda frazeologik birliklarning semantik transformatsiyasi, individual muallif tomonidan qayta ishlanishi va yangi poetik mazmun hosil qilishi alohida ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Lingvopoetikaning navbatdagi tadqiqot obyekti morfopoetika hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda grammatik shakllarning poetik imkoniyatlari, so'z yasovchi vositalar, grammatik kategoriyalar, affikslarning ekspressiv vazifasi hamda morfologik vositalarning badiiy mazmunni yuzaga chiqarishdagi o'rni tahlil qilinadi. Muallif tomonidan ayrim grammatik shakllarning me'yoriy qo'llanishdan chekinishi yoki ularning stilistik maqsadda tanlanishi badiiy matnning emotsional-ekspressiv ta'sirini kuchaytiruvchi muhim omillardan biri sifatida baholanadi.

Sintaktik poetika badiiy matnning sintaktik qurilishi va gap tuzilishining estetik imkoniyatlarini o'rganadi. Inversiya, parallelizm, takror, gradatsiya, ellipsis, ritorik so'roq, ritorik murojaat, parcelliyatsiya va boshqa sintaktik vositalarning poetik funksiyasi badiiy matnning ritmik tashkil etilishi, obrazlilik darajasi va emotsional ta'sirchanligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan sintaktik vositalar muallif individual uslubining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Lingvopoetik tadqiqotlarda troplar va stilistik figuralar ham markaziy obyektlardan biri sanaladi. Metafora, metonimiya, sinekdoxa, epitet, o'xshatish, ramz, allegoriya, kinoya, giperbola, litota kabi trop vositalari hamda anafora, epifora, antiteza, oksimoron, gradatsiya singari stilistik figuralar badiiy tafakkurning lisoniy ifodasi sifatida asarning estetik qimmatini belgilaydi. Zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarda ushbu vositalar nafaqat badiiy tasvir elementi, balki muallifning konseptual dunyoqarashi va individual poetik tafakkurini ifodalovchi vositalar sifatida ham talqin qilinadi.

Lingvopoetikaning eng muhim tadqiqot obyektlaridan biri individual muallif uslubi hisoblanadi. Har bir ijodkorning badiiy olami til birliklarini tanlash, ularni qo'llash usuli, poetik obrazlar yaratish mahorati hamda estetik idealini ifodalash vositalari orqali namoyon bo'ladi. Shu bois lingvopoetik tahlilda muallif uslubining fonetik, leksik, frazeologik, morfologik va sintaktik xususiyatlari kompleks ravishda o'rganiladi hamda ular badiiy tafakkurning individual namoyon bo'lish shakli sifatida baholanadi.

Xulosa. Umuman olganda, zamonaviy lingvopoetikaning muhim tadqiqot obyektlari qatoriga poetik obrazlar va badiiy konseptlar ham kiradi. Kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlarning rivojlanishi natijasida poetik obrazlar muallifning estetik dunyoqarashi va milliy-madaniy tafakkurining konseptual modeli sifatida talqin qilina boshlandi. Badiiy konseptlar esa matnda ifodalangan milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, axloqiy-estetik ideal va individual muallif tafakkurining lisoniy modeli sifatida namoyon bo'lib, lingvopoetik tahlilda badiiy matnning chuqur semantik qatlamlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu jihatdan lingvopoetik tadqiqotlar badiiy matnni ko'p sathli kommunikativ-estetik tizim sifatida o'rganishga imkon beruvchi integrativ ilmiy yo'nalish sifatida zamonaviy filologiyada muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aristotle. Poetics. Translated by S. Halliwell. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1995. – P. 27.
2. Шкловский В. Б. О теории прозы. Москва: Советский писатель, 1983.
3. Эйхенбаум Б.М. О теории «формального метода» // Литература: Теория. Критика. Полемка. – Ленинград: Прибой, 1927. – С. 116–148.

4. Тынянов Ю. Н. Поэтика. История литературы. Кино. Москва: Наука, 1977.
5. Mukařovský J. Aesthetic Function, Norm and Value as Social Facts. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1970.
6. Лотман Ю. М. Структура художественного текста. Москва: Искусство, 1970. – С. 384.
7. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – Москва: Высшая школа, 1971. – С. 240.
8. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1979. – С. 424.
9. Galperin I. R. Text as an Object of Linguistic Study. – Moscow: Nauka, 1981. – P. 139.
10. Jakobson R. Linguistics and Poetics // Style in Language. – Cambridge (Mass.): MIT Press, 1960. – P. 350-377;
11. Wellek R., Warren A. Theory of Literature. New York: Harcourt, Brace & World, 1956;
12. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996. – С. 288.